

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.N.Shokirova

Amaliy ishlatiladigan yakka insektitsidlarni g'o'za tunlamiga qarshi qo'llash va ularning samaradorligini aniqlash.....734

G.N.Shokirova

Aralashma insektitsidlarni g'o'za tunlamiga qarshi qo'llash samaradorligini aniqlash738

M.A.Abdurahimova

O'zbekiston hududida o'suvchi dorivor o'simliklarni dorivorlik xususiyatini o'rgatish orqali talabalarning tibbiy savodxonligini rivojlantirish.....742

B.K.Boboyev, O.K.Usmonov, S.Sh.Kabilov, M.B.Xoliqov, M.B.Maxammadaliyev

Innovatsion texnologiyalar asosida chorvachilik sohasini rivojlantirish.....745

U.B.Mirzayev, X.A.Abduxakimova

Farg'ona vodiysi bo'z va cho'l mintaqasi tuproqlarining unumdorligi.....749

G.T.Sotiboldiyeva, X.A.Abduxakimova

O'simliklarni oziqlanishi va o'g'it fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish754

D.Sh.Sultonov

O'zbekiston po'stloqxo'r qo'ng'izlarining taksonomik ro'yxati.....757

GEOGRAFIYA**Y.I.Ahmadaliyev, N.A.Fattoxov**

Factors of pollution of the geoecological condition of agglomerations (on the example of Fergana-Margilan agglomeration)762

O.I.Abduganiev, Kh.Abdullaeva

Agrotourism as a factor of sustainable rural development.....765

I.I.Abdug'aniev, D.B.Kosimov

Transchegaraviy muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etishning ekologik-geografik asoslari.....770

R.T.Pirnazarov, S.I.Usmonova

Ulkan to'g'onlar geografiyasi va ular bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar.....778

R.Y.Xolikov, I.Y.Zikirov

Farg'ona vodiysi reliefini qiyalik darajasi va uni GIS dasturlari yordamida kartalashtirish783

A.A.Xamidov

O'zbekistonda zoogeografik tadqiqotlarning rivojlanishi788

R.T.Pirnazarov, Sh.N.Axmadjonova

O'rta Osiyodagi to'g'onli ko'llarning genetik turlari va ularni tasniflash masalalari793

N.O'.Komilova

Ijtimoiy-geografik yondashuv asosida etnoekologik madaniyatni o'rganish masalasi.....798

J.J.Mamatisakov

O'quvchilarni geolog kasbiga qiziqtirishda maktab geografiya ta'limining o'rni803

D.B.Kosimov, Z.I.Mamirova, Sh.S.Sobirova

Ekologik-xo'jalik holatni baholash asosida yerdan foydalanishning hududiy tarkibini takomillashtirish807

L.M.Saydaliyeva

Sakral landshaftlarni xosil bo'lishining tabiiy - tarixiy jihatlari813

A.E.Madraximov

Joy Relyefi va uning o'zgarishi haqida ma'lumot beruvchi geografik nomlar.....819

EKOLOGIYA**M.T.Abdullayeva, L.A.Tadjibayeva**

Qishloq xo'jaligida yerni boyitishda don dukkakli o'simliklarning ro'li822

S.A.Mamatqulova, T.E.Usmanova, I.R.Asqarov

Analysis of macro and micro elements in the biologically active supplement "AS-OROM"827

M.T.Abdullayeva, L.A.Tadjibayeva

Sansevieriya (Sansevieria) o'simligining ayrim bioekologik xususiyatlari va uni yetishtirish texnologiyasi831



UO'K: 551.4 (575.12)

O'ZBEKISTONDA ZOOGEOGRAFIK TADQIQOTLARNING RIVOJLANISHI**РАЗВИТИЕ ЗООГЕОГРАФИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ****DEVELOPMENT OF ZOOGEOGRAPHICAL RESEARCH IN UZBEKISTAN****Xamidov Abdusamad Abdumalikovich** 

Farg'ona davlat universiteti, geografiya kafedrasi dotsenti v.b. Geografiya fanlari nomzodi

Anotatsiya

Tadqiqotlar dinamikasini tahlil qilish, qilinishi lozim bo'lgan ishlarni mohiyatini ochib beriga imkon beradi. Maqolada 1900 va 2000 yillar oralig'ida O'zbekiston hududida hayvonot dunyosini o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlil qilingan.

Анотация

Анализ динамику исследованиуа откроеит и даст возможности понуатиуа сущности выполняемых работ. В данной статье рассматриваетсуа исследование и анализ по изушение животного мира в Узбекистане 1900-2000 годах.

Abstract

Analyzing the dynamics of your studies will allow you to disclose the essence of what you have to do. In this article, studies on the study of the animal world in the territory of Uzbekistan between 1900 and 2000 were analyzed.

Kalit so'zlar: Zoogeografiya, zoekologiya, ekologik - biotsenologik tadqiqotlar, biogeografik xususiyatlar, fauna, kompleks ekspeditsiyalar, statsionar tadqiqotlar, litogen, gidrologik va iqlimiy omillar, landshaftning hayvonot komponenti.

Ключевые слова. Зоогеографиуа, зоозкологиуа, эколоого – биотсенологический исследований, биогеографический аспекты, фауна, комплексний экспедитсуи, статсуонарный исследований, литогенний, гидрологический и климатический факторы, животные компоненты ландшафта.

Key words. Zoogeography, zooecology, ecological-bioecological studies, biogeographic features, fauna, complex expeditions, hospital studies, lithogenic, hydrological and climatic factors, animal composition component.

KIRISH

O'zbekistonda tabiiy geografik tadqiqotlarning rivojlanishida tabiat komponentlaridan biri bo'lgan hayvonot dunyosini o'rganilganlik darajasini bilish ham juda muhimdir. 1900-2000 yillar oralig'ida O'zbekistonda zoogeografik va zoekologik tadqiqotlar o'ziga xos yo'nalishda davom etdi. Agar mantiqan olib qaralsa, o'tgan XIX asr oxiridagi A.P.Fedchenko (1875), N.A. Severtsov (1879), A.I.Vilykins (1886) va boshqalarning O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston hayvonot dunyosiga bag'ishlangan zoogeografik rayonlashtirish tizimidagi ishlaridan tashqari chuqur tadqiqotlar olib borilmaganligini ko'rishimiz mumkin. Shularni hisobga olib bu yillardagi (asosan XIX-asrning ikkinchi yarmi) zoogeografik va zoekologik tadqiqotlarni 19-20 yillarda aniq maqsadlarga yo'naltirilgan, rejali tizimga ega bo'lgan tadqiqotlarning boshlamasi uchun asos sifatida izohlash mumkin.

O'zbekistonda zoogeografik, zoekologik tadqiqotlarning rivojlanishida D.N.Kashgarovning Farg'ona vodiysining Arslonbob va Sarichelak ko'li rayonlarida olib borgan tadqiqotlarini ta'kidlab 1970-yillarda R.U.Rahimbekov shunday yozadi: – "Arslonbob va Sarichelak ko'li rayonidagi tadqiqotlar negizida olib borilgan izlanishlar, ekologiya fanining namoyondalaridan biri D.N.Kashgarovning o'ziga xos zoekologik qarashlari ma'lum darajada shakllandi va kompleks ekologik-biotsenologik tadqiqotlari to'g'ridan-to'g'ri landshaft-geografik metodning yaratilishiga asos bo'ldi"[1,b.160]

O'zbekistonda D.N.Kashgarov rahbarligida zoekologik va biotsenologik tadqiqotlarning boshlanishi o'lka geografiyasi tarixida muhim voqea bo'ldi. D.N.Kashgarov va A.L.Brodskiyar O'rta

GEOGRAFIYA

Osiyo tabiatini muhofaza qilish, qo'riqxonalar barpo etish yuzasidan katta nazariy va amaliy ishlarni olib bordilar.

D.N.Kashgarov 1925-yili Sarichelak ko'li rayonida tadqiqot ishlarini olib bordi va o'zining zoookologik qarashlarini "Sarichelak ko'li va uning atroflarini umurtqali hayvonlar faunasini umumlashtirilgan ekologik holati" ocherkida batafsil yoritib berdi, eng asosiysi uning zoologiya qismiga oid ishlarida Sarichelak ko'lining hayvonlari ro'yhati va ularning biogeografik xususiyatlari atroflicha yoritilgan.[2]

Ocherkning yakunlovchi qismida D.N.Kashgarov Sarichelak ko'lini va unga qo'shni Tamanasoy va Kichik Qoraxotinsoylarni janubiy sohillarini qo'riqxona deb e'lon qilinishini talab qiladi. Uning bu g'oyasi faqat 1960 yillarga kelib amalga oshirildi. Chotqol tizmasining janubiy biosfera qo'riqxonasi maqomi berildi. O'zbekiston va unga tutash hududlarni hayvonlari haqidagi ma'lumotlarni yana D.N.Kashgarovning 1931 yilda nashrdan chiqarilgan "Turkiston hayvonlari" nomli klassik asarida ham ko'rish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Zoogeografik va zoookologik qarashlarning, tasavvurlarning kengayishida O'zbekistonda D.N.Kashgarov va Ye.P.Korovinlarning ekologiya maktabi ilmiy tadqiqotlari muhim rol o'ynaydi. Bu hol biologik tadqiqotlarni geografik izlanishlar bilan bog'lashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston qushlari va hayvonlari haqidagi 1967 yilgacha bo'lgan ma'lumotlarni "O'zbekiston faunasi" nomli asarda ko'rishimiz mumkin.

Keyinchalik D.N.Kashgarovning shogirdlaridan T.Z.Zohidov va R.N.Maklenburtsevlar o'zlarining 1969-1971 yillarda bosmadan chiqargan "O'rta Osiyoning tabiati va hayvonot dunyosi" nomli asarlarida o'lka hayvonlari haqidagi ko'plab ma'lumotlarni umumlashtirdilar.[3]

Umuman O'zbekiston va unga qo'shni hududlar zoogeografiyasi va zoookologiyasini rivojlanishida D.N.Kashgarovning o'rni juda beqiyosdir. O'rta Osiyodagi kemiruvchi hayvonlarning sistemasi, biologiyasi va geografiyasi bilan shug'ullangan olim o'tgan asrning 20-yillarning o'rtalarida kompleks ekologik-biotsenologik ekspeditsiyalar uyushtirib unga rahbarlik qildi. Uning rahbarligida ayniqsa muvaffaqiyatli o'tgan biz yuqorida aytib o'tgan Sarpichelak, Arslonbob, Biyliko'l va boshqa kompleks ekspeditsiyalari zoookologik, biotsenologik va landshaftshunoslik ruhida ekanligi, metodikasining orginalligi hamda ilmiy-nazariy xulosalarining yuksak saviyasi tufayli katta ahamiyatga ega bo'ldi.

D.N.Kashgarovning bu ekspeditsiyalar ilmiy natijalariga bag'ishlangan yirik asarlarida hududlarning faunistik, zoogeografik, ekologik, biotsenologik va landshaft tahlili bir-biriga shu qadar uyg'unlashib ketganki, bu jihatdan u o'z davrining eng yuksak kompleks tabiiy-geografik regional asarlari darajasidadir.

SAGU Zoologiya institutining Umurtqasiz hayvonlar va gidrobiologiya kafedrasining A.L.Brodskiy rahbarligidagi ekspeditsion va statsionar tadqiqotlari faunistika, zoogeografiya va zoookologiya, gidrobiologiya va ixtiologiya, tuproqlar mikrobiologiyasi ilmiy yo'nalishlari bo'yicha rivojlandi. Kafedra a'zolari (A.L.Brodskiy, N.A.Keyzer, S.D.Muraveyskiy, N.I.Kuznetsov-Ugamskiy va boshq.) Farg'ona tizmasi, Qizilqum, Mirzacho'l, Dalvarzin dashti, Orol dengizi va boshqa hudud faunasi, hayvonlari to'g'risida katta faktik va ilmiy ma'lumotlar to'pladilar.

1930-1938 yillar davomida Sho'rolar FA Zoologiya instituti kemiruvchi hayvonlarni tadqiq qilish uchun Janubiy O'zbekistonga hamda Qoraqalpog'istonga kompleks ekspeditsiyalar uyushtirdilar.

1929-1931 yillar SAGU Botanika va Zoologiya institutining ekspeditsiyalari u qadar rivoj topmadi va nisbatan tor botanik hamda zoologik yo'nalishda o'tkazildi. Bu tor ixtisoslashuvni bartaraf etish va kompleks tadqiqotlarni yo'lga qo'yish maqsadida 1932-yili universitet qoshida Ye.P.Korovin boshliq Biologiya ilmiy tadqiqot instituti tashkil etildi. Biologiya instituti universitet ekologik hamda geografik fikrlarning asosiy markaziga aylandi. Institut turli xil yo'nalishdagi ekspeditsiyalarni uyushtirish tashabbuslari bo'lib chiqdi. Uyushtirilgan ekspeditsiyalarga turli ixtisoslikdagi biologlardan tashqari, iqlimshunos, tuproqshunos, agronom va boshqa mutaxassislar ham jalb qilindi. Ekspeditsiyalar uchun D.N.Kashgarov bilan Ye.P.Korovin ishlab chiqqan ekologik-biogeotsenologik uslub asos qilib olindi va ish davomida bu uslub kompleks ekologik geografik bosqichga ko'tarilib bordi. Mana shunday namunaviy ekspeditsiyalardan biri 1934-1937 yillardagi Konimex kompleks ekspeditsiyasidir.

1934-yil Janubi-G'arbiy Qizilqumda I.I.Granitov rahbarligidagi Konimex kompleks ekspeditsiyasi ish boshladi. 1937-yilgacha davom etgan bu ekspeditsiyada Ye.P.Korovin, N.A.Bobinskiy, T.Z.Zohidov, I.I.Kolesnikov, M.A.Orlov, A.A.Skvortsov kabi taniqli tabiatshunos olimlar ishtirok etdilar.

SAGU Konimex kompleks ekspeditsiyasining ilmiy natijalari I.I.Granitov va T.Z.Zohidovning katta monografik asarlariga asos bo'ldi. T.Z.Zohidovning "Qizilqum cho'li biotsenozlari" (1971) kitobi esa hududni ekologik-biotsenologik jihatdan tahlil va sintez qilish hamda baholashga bag'ishlangan bo'lib, tabiiy geografik xulosa va g'oyalarga boydir. SHunisi tavsifliki, olim ajratgan va tasvirlagan Qizilqum biotsenozlari aslida keng biogeotsenologik ahamiyat kasb etadi. Chunki qumli, Toshloq, Sho'rxok cho'llar, qirlar va suv havzalari biotsenozlari barcha ekologik omillar – litogen, edafik, gidrologik va iqlimiy omillar bilan uzviy aloqada talqin qilinadi. Qizilqum cho'li hayot arenasi deb qaralib, uning shakllashish tarixi, hozirgi ekologik sharoiti va qishloq xo'jalik imkoniyatlari bilan qo'shib birgalikda batafsil tahlil qilinadi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida SAGU ning o'lka cho'llarini o'rganish yuzasidan olib borgan kompleks izlanishlari orasida Janubiy Qizilqum va Ustyurt ekspeditsiyalari ilmiy natijalarining ahamiyati jihatidan alohida ajralib turadi. Bu ekspeditsiyalarda zoologlardan T.Z.Zohidov va boshqalar ishtirok etdilar. Garchi bu ekspeditsiyalar asosan yaylovlardan chorvachilik masalalarida tashkil etilgan bo'lsa-da, tadqiqot natijalari kompleks geografik tus oldi. Ekspeditsiyaning katta ilmiy natijalari, hayvonot olami haqidagi ma'lumotlar 1953 yili nashrdan chiqarilgan maxsus kitobda keng yoritib berilgan. Ustyurt kompleks ekspeditsiyasida zoologlardan – I.I.Kolesnikov, V.P.Kostin, N.A.Ioffe, K.V.Belyaeva va boshqalar ishtirok etib plato hayvonlarining ekologiyasi va geografiyasidan tashqari xalq xo'jaligidagi salbiy rolini aniqlashga ham alohida e'tibor berdilar.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

1945-yillardan keyingi davr mamlakat hayvonot olamini geografik komponent va biologik resurs sifatida o'rganish bo'yicha ham intensiv izlanish yillari bo'ldi. Bu yillar O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston hayvonot dunyosini o'rganishga V.S.Vinogradov, V.G.Geptner, T.Z.Zohidov, B.A.Kuznetsov, Ye.N.Pavlovskiy, A.Ya.Tugarinov, F.A.Turdakov, A.N.Formozov, B.K.Shtegman, va A.I.Yanushevich va boshqalar ayniqsa barakali xissa qo'shdilar. Zoogeografik tasavvurlarning kengayishida O'zbekistonda D.N.Kashgarov, Ye.P.Korovin ekologiya maktabi vakillarining tadqiqotlari muhim rol o'ynaydi. CHunonchi T.Z.Zohidovning ko'plab maqolalarida cho'l hayvonlari geografiyasi keng ekologik-biotsenologik aspektga yoritildi. Bu hol biologik tadqiqotlarni geografik tadqiqotlar bilan bog'lashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'rta Osiyo hayvonot dunyosining asosiy geografik xususiyatlari 1958-yili A.N.Formozov va R.P.Zimina tomonidan umumlashtirildi. Ular O'rta Osiyo tekislik va tog'lik qismlari hayvonlarining tarqalish qonuniyatlarini yoritib berdilar, tipik hayvon turlarini ajratib ko'rsatdilar, hayvonot olamining xalq xo'jaligidagi ijobiy va salbiy rolini baholadilar, kishilarning faunaga ta'sirini bayon etdilar va nihoyat, yangi zoogeografik rayonlashtirish sxemasini tavsiya etdilar.[4]

1950-yillarga kelib O'rta Osiyo zoogeografiyasining klassiklari N.A.Severtsov, V.F.Oshanin, N.A.Zarudniy va D.N.Kashgarovlarning rayonlashtirishiga oid fikrlari muvaffaqiyatli rivojlantirildi.

A.N.Formozov bilan R.P.Zimina o'lkaning tekislik va tog'li qismlarini alohida rayonlashtirdilar. CHunonchi, A.N.Formozov O'rta Osiyoning tekislik qismini Palearktikaning cho'l-dasht oblastchasi tarkibida Qozog'iston va Turon provintsiyalariga bo'ldi. Turon provintsiyasining Ustyurt, Orol dengizi va Sirdaryodan janubdagi asosiy qismi O'rta Osiyo cho'l okrugi deb atalib u Dengizbo'yi, Markaziy, SHimoliy Qizilqum va Janubiy Qoraqum rayonlariga bo'lingan. R.P.Zimina o'lkaning tog'li qismini rayonlashtirishda M.A.Menzbir sxemasiga tayanib, SHarqiy Tyanshan, G'arbiy Tyanshan, Pomir va Tojikiston zoogeografik uchastkalarini ajratadi hamda ularning individual xususiyatlarini yangi dalillar bilan ko'rsatib beradi.

O'zbekiston hayvonlari haqidagi eng yangi ma'lumotlar O.P.Bogdanovni "O'zbekiston hayvonlari" (1978) hamda 1974-yili nashrdan chiqarilgan "Farg'ona vodiysining umurtqali hayvonlari" asarlarida mujassamlashti. O'zbekiston hayvonlariga bag'ishlangan bu asarlarda hududda tarqalgan hayvonlarni landshaftlar bo'yicha tarqalishi mukammal yoritildi. Bu asarlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, O'zbekistonda tarqalgan hayvonlarni landshaftlar bo'yicha tarqalish xususiyatlarini ochib berish bilan bir qatorda ularning foydali va zararli tomonlarini ham to'liq ochib berishga harakat qilingan. Ayniqsa, uning Markaziy Farg'ona cho'llari (Yozyovon) o'simlik va

GEOGRAFIYA

hayvonlarini yashash sharoiti boshqa turdagi cho'llardan farq qilib, bu yerdagi qumlarda namlik (10-20 sm chuqurlikda) yetarli ekanligini asoslab berishi juda katta ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Bu chiqarilgan ilmiy xulosalardan Yozyovon cho'llarini qishloq xo'jalik muomalasiga tortishda keng ko'lamda foydalanilgan.

1970-yillardan boshlab O'zbekiston hududini hayvonot dunyosini o'rganish asosan qishloq xo'jalik nuqtai nazardan atroflicha tadqiq qilina boshlandi. Ya'ni ekinzorlarga zarar keltiradigan hasharotlar shu kunlarga ham o'rganilib ilmiy tadqiqot ishlari davom ettirilmoqda.

CHO'l, adir, tog' oldi, tog' geotizimlariga antropogen ta'sirning juda kuchli ekanligi tufayli hayvonot dunyosini saqlab qolishning eng asosiy optimal varianti turli geotizimlarda qo'riqxonalar tashkil etish va ekologik madaniyatni kishilar ongiga singdirishdan iborat ekanligi asosiy masalalardan biriga aylanib bormoqda.

Xulosa o'rinda shularni ta'kidlash joizki, u yoki bu hududning landshaftlarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlarning aksariyatida landshaftning hayvonot komponentiga nihoyatda kam e'tibor berilganligini guvohi bo'linadi. Odatda, bunday tabiiy geografik ilmiy ishlarda ham landshaftda uchraydigan hayvonlarning nomlari sanab o'tiladi xolos. Landshaftlar hayvonoti dunyosini tabiiy geografik tahlil qilish masalalari mutlaqo ishlanmagan desa bo'ladi (SH.S.Zokirov, 1999). Ayniqsa landshaftning ichki va tashqi o'zaro ta'sir va aloqadorliklarini o'rganishda hayvonlarni rolini aniqlash qanchalik muhim bo'lmasin, tadqiqotchilarning e'tiboridan xamisha chetda qolavergan. Bu borada, balki ekologiya, biogeotsenologiya fanlari ishlab chiqqan metodlardan unumliroq foydalanish ko'zlangan natijalarni berar. Chunki landshaftlarda bo'ladigan modda va energiya almashinish jarayonida (ya'ni landshaft metabolizmida) tirik organizmlarning roli o'simliklarning rolida kam bo'lmasa kerak.

Lanshaftning hayvonot komponenti undagi o'simlik hosil qilgan birlamchi organik moddani o'zgartiruvchi hamda landshaftning morfologik qismlariaro va landshaftlararo modda va energiya tashuvchisidir. Uning tuproq hosil bo'lishi, tuproq unumdorligini shakllanishi, o'simliklarning urug' va mevalarini tarqalishi kabi bir qator jarayonlarda ishtiroki ahamiyati kattadir. Bu jarayonlarda qaysi hayvon turi qanday ishtirok etishini bilishda ularning tabiatdagi hayotiy faoliyatiga qarab guruhlarga ajratib olish yaxshi natija berishi mumkin. Sababi bunday guruhlardagi organizmlarning soni, oziqlanish usullari, o'sishi va ko'payish tezligi, hayot tarzi va hokazolar turlichadir. Masalan, o'simlik bilan oziqlanadigan hayvonlar va fitofaglar jonsiz organik modda bilan oziqlanadigan saprofaglarga qaraganda boshqacharoq tavsifga ega bo'lgan ishlarni bajaradi. SHuningdek, tuproq tarkibida yashaydigan organizmlar bilan yer yuzasida yashaydigan organizmlar ham landshaftda turli xil va turli miqyosdagi faoliyatga egadir.[5]

Binobarin, landshaftdagi har bir organizm shu landshaft muhitiga moslashgan bo'ladi. Agar organizmning yashash sharoitida biron bir o'zgarish ro'y bersa bu shu organizmni o'zgarishiga olib keladi va o'z navbatida o'simlik hayvonot komponenti o'zini-o'zi rivojlantirish holatiga ega bo'lganligi uchun ma'lum miqdorda atrof-muhitga ham ta'sir etib turadi. SHuning uchun ham landshaftlardagi tog' jinslari va rel'ef, iqlim va suvlarning xususiyatlariga qarab tuproq, o'simlik va hayvonot haqida umumiy tasavvur hosil qilish mumkin bo'ladi (SH.S.Zokirov, 1999).

Xaqiqatan hayvonlarni landshaftlarni ichki va tashqi o'zaro aloqadorliklaridagi roli ularning ishtiroki qay darajada ekanligi tabiiy geografiyada hali to'liq o'rganilmagan. SHuning uchun bu masalani zoogeografiyadagi, zoekologiyadagi yangi tadqiqot yo'nalishlari qatoriga kiritish mumkin.

XULOSA

O'zbekistonda va umuman O'rta Osiyoda olib borilgan geobotanik, zoogeografik, zoekologik tadqiqotlar natijalari shunday xulosalar chiqarishga olib keldiki, bu xulosalar hududda olib borilgan tadqiqotlar jarayonida o'z asosini hamda yangi tadqinini topdi.

Jumladan, zoogeografik, zoekologik tadqiqotlar natijasida O'rta Osiyoda shunday g'oya ma'lum bo'ldiki, o'lkaning janubiy qismi faunasi genezisi bo'yicha Old Osiyo va O'rta dengiz bo'yi, shimoliy qismi esa G'arbiy Sibir va Markaziy Osiyo bilan bog'liqligi aniqlandi. Bu g'oya 1940 yillarda kelib o'zining asoslanishini tadqiqotlar natijasida topdi.

– 1900-1940 yillar oralig'ida O'zbekiston hududida olib borilgan hayvonot dunyosini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar asosan ularni geografik tarqalishiga hamda ekologik holatiga bag'ishlandi;

– 1940-1945 yillarda olib borilgan zoogeografik tadqiqotlar asosan armiyani oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan ta'minlash masalalari bilan bog'liq holda olib borilib, chorva hayvonlarini ko'paytirish ishlariga katta e'tibor berildi;

– 1946-1965 yillarda olib borilgan zoogeografik, zooekologik tadqiqotlarning yo'nalishi qishloq xo'jalik ekinlariga zarar keltiruvchi hasharotlarni o'rganish, hayvonlar sistematikasi masalalari bilan bog'liq bo'ldi;

– 1965-1990 yillar orasida O'rta Osiyo, jumladan O'zbekistonda zoogeografik va zooekologik tadqiqotlarning yo'nalishi bir muncha o'zgardi. Tabiiy holdagi landshaftlarni antropogen faoliyat ta'siriga tortilishi munosabati bilan landshaftlar o'zgardi va hayvonot olamiga keragidan ortiq salbiy ta'sirlar yetkazildi. Oxir oqibat hayvonot olamini kambag'allashuvi ba'zi bir turlarini butunlay yo'q bo'lib ketishiga olib keldi;

– 1990-yillardan shu kunlargaacha: hayvonot dunyosiga yetkazilgan salbiy ta'sir oqibatlarini kamaytirish, biologik xilma-xillikni saqlab qolish borasida ekologik ong, madaniyatni rivojlantirish eng asosiy masala sifatida maydonga chiqmoqda.

– Endigi zoogeografik, zooekologik tadqiqotlar tabiatning boshqa komponentlari bilan birgalikda ularni ekologik holatini aniqlash, muhofaza qilish bo'yicha monitoringini ishlab chiqish orqali amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Рахимбеков Р.У., Донцова З.Н. Из истории изучения природы Средней Азии. -Ташкент: //Изд-во, «Ўқитувчи». -1970. -С.3-271.
2. Кашгаров Д.Н. Результаты экспедиции в район оз. Сары-Челак. //Изв. Среднеаз. ком. по делам музеев и ох. памуат. страны. Вып.2. Т.1. -Ташкент: -1927. -С.5-78.
3. Захидов Т.З., Макленбурцев Р.Н. Природа и животный мир Средней Азии. Позвоночные животные. В 2-х т. (Под ред. акад. Т.З.Захидова). Т.1-2. - Ташкент: 1971. -С.2-323.
4. Формозов А.Н., Зимина Р.П. Животный мир. //В кн. «Средняя Азия» АН СССР. -М.: -1928. -С.113-170.
5. Зокиров SH.C. Кичик худудлар tabiiy geografiyasi. //Universitet: - Toshkent:- 1999:-31-45 -betlar